



2023-yil. 5-son.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI
Elektron jurnal

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
Электронный журнал

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING |

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Electronic journal

ISSN 2010-5584



2023-yil
5- son

«Til va adabiyot ta'limi»
«Преподавание языка и литературы»
«Language and literature teaching»

ilmiy metodik jurnal / научно-методический журнал

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Nargiza Rahmonqulova
Yorqinjon Odilov
Nasirullo Mirkurbanov
Jabbor Eshonqulov
Valijon Qodirov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
Tolib Enazarov
To'lqin Saydaliyev
Ravshan Jomonov
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Tajixon Sabitova
Salima Jumayeva
Nilufar Namozova
Qayum Baymirov
Manzar Abdulkayrov
Lutfullo Jo'rayev
(bosh muharrir o'rinnbosari)
Aljon Safarov (elektron nashr uchun)
Madina Nuriddinova (elektron nashr uchun)
Latifa Xudayqulova (elektron nashr uchun)
Barno Kadirova (elektron nashr uchun)

Muharrirlar:

Nilufar Namozova
Emma Torosyan
Nargis Bobodjanova

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy,
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

M U N D A R I J A

TADQIQOT

Shohidaxon Yusupova, Dilfuza Urmonova. Takrorlash va mustahkamlash darslarida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlaridan foydalanish	3
Otabek Shukurov. O'zbek tili leksikasining taraqqiyot tendensiysiali va omillari	7
Aziza Yusupova. Kognitiv tilshunoslik yo'nalishining shakllanishi, taraqqiyoti va boshqa fanlar bilan aloqasi	10
Jumanazar Abdullayev. So'z lisoniy birlikmi, nutqiy birlik?	13
Ruhillo Cho'liyev. O'zlashma qatlama oид leksik birliklар tahlili	18
Gulruh Bozorova. "Ko'p intellekt" nazariyasi asosida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish	21
Maftuna Mo'minova. Navoiyning ustoz-shogird haqidagi g'oyalari	23
Gulmalika Umarova. "Saddi Iskandariy" dostonida hakimlar obrazlarining umumiy va xususiy vazifasi	26
Shunqor Bo'riyev. Media makonda harbiy jurnalistikaga zarurat va o'ziga xos uslubi	28
Dilnavoz Asatullayeva. Buxoro shevalarida fonomorfologik o'zgarishlar talqini	30
Saodat Jo'rayeva. O'zbek xalq folklorida bolalarning o'rni	33
Dilorom To'rayeva. Usmon Azim poetik mahorati	35
Shahnoza Muhammadiyeva. 5-Sinf ona tili mashg'ulotlarida izohli lug'atini tuzish metodikasi	37
Feruza Irgashova. 5-Sinf o'quvchilarining yozma nutqini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari	38
Gulhayo Egamova. 5-Sinf ona tili darsligida lingvistik bilimlarni berish metodikasini takomillashtirish	40
Nilufor Payziyeva, Gulchehra Imomova. Estetik ideal va ijodkorning badiiy olami	42
Po'latxon Kattayev. Mahdumi a'зам dahbediy qalamiga mansub "Majmuat ur-rasoil" tarkibidagi "Ganjnama" matnlarining qiyosiy-matniy tadqiqi	44
K.A. Mamadkulova. Use of traditional teaching methods in foreign language lessons	46
Feruza Sattarova. The ways of developing responsibility in primary education students ..	48
Manzura Burxonova. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda tibbiy madaniyat va sog'lom turmush tarzi bo'yicha kompetensiyasini shakllantirish imkoniyatlar	50
Olim Usmonov. F. Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo" romanini tarjimasi xususida	53
Mahbuba Tursunova. Sirojiddin Sidqiyon Xondayliqiy lirik asarlarining mavzuiy tasnifi	54
Nargiza Muhammedova. Telejurnalisting auditoriyaga ta'sir ko'rsatish usullari	56
Samir Raxmatullayev. "Temurbeklар maktabi" va "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseylarida ta'lim samaradorligini oshirishning innovatsion usuli	58
Feruza Gulboyeva. Nasriy asar kompozitsiyasining tarkibiy qismlari	63
Zokir Bozorov. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati monitoringini amalga oshirishning hozirgi holati	67
Mirjalol Bobotayev. "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi qarindoshchilikka oid dialektizmlar xususida	69
Mahliyo Buxorova. Tilning asosiy ijtimoiy funksiyalari tadqiqiga doir mulohazalar	71
Qahramon Esanboyev. Family as the primary institution of child socialization	73
Nurbek Ganiyev. Qiziltepa hududi onomastik birliklarining tavsifi tasnifi	74
Amira Ibatova. Non konsepti va uning mohiyati xususida	75
Istoda Rasulova. Kontrastiv lingvistika va uning til sathlarida o'rganilishi	77
Mehro'zbek Jo'rabyev. Pedagogika kollejlardagi ta'lim sifatini baholash tamoyillari	79
Shoxsanam Mamatkulova. Leksik ko'nikmalarni rivojlantirish metodlari va ularidan nutqda foydalanish	81
Moxidilxon Abdullayeva. Adabiyot ta'limi multimedialashtirishning o'quvchilar intellektiga ta'siri	82

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.



Elektron jurnali

Shaxribon Musurmankulova. "Uzturkfraz" parallel korpusi ma'lumotlar bazasini shakllantirish texnologiyasi	84
Zarina Ro'zimurodova. "Londonjon" haqida nimalarni bilasiz?	86
Dilfuza Shadiyeva. Zamonaviy o'zbek she'riyatida qo'llangan tajnis san'atining lisoniy xususiyatlari	87
Akmal Tursunov. Yasama so'zni o'rganishning morfologi bilan bosqichilari	89
Назира Ахмедова. Художественная культура, как фактор развития индивидуальности и воспитания личности студентов технических высших учебных заведений	90
Исҳақжон Исмаилов. Тарихнависликка эътиборнинг асар бадииятида туттган ўрни	92
Мухаббат Юсупова. Сценарий (скрипт) как динамическая когнитивная единица	94
Dilnavoz Yusupova. Alisher Navoiy ijodida shayxlar zikri va ma'rifatulloh talqini	97
Фотим Яркулова. Развитие речи на занятиях по русскому языку как иностранному на этапе предвузовской подготовки	100
Nafisa Sattorrova. Shortened words and their types in English and Uzbek	103
Шахзода Эгамбердиева, Фарида Эгамбердиева. Соотношение концепций «коммуникативная стратегия» и «манипулирование» в рекламном дискурсе	105
Sharofiddin Jalilov. Otanazar Muso Mutavallli Kamoliy va uning devonini o'rganilishi	108
Dilfuza Shakirova. O'zbekiston ta'lim bozoridagi milliy brendning rivojlanishi tahlili	109
Gulshan Ishankulova. Yurtimzdagi ko'plab geografik joy nomlarining lingvistik tahlili	111
Dilbar Nigmatova. Ixtisoslashgan nashrlarda til va uslub jihatdan tahlil masalalari	113
Gavxar Axmedova, Maxbuba Ummatova. Talabalar matematik kompetentligini rivojlantirishda masalaliv yondashuvning ahamiyati	114
Mukhayyo Atadjanova. Different approaches to the definition of the concept of "discourse"	116
Vohida Yuldasheva. Evfemizmlar madaniyatlararo muloqotning obyekti sifatida	118
Pardatursun Qurbanov. Fanlararo integrativ yondashuv asosida o'quvchilarning kasb-hunar tanlash kompetentsiyalarini rivojlantirishning asoslari	121
O'tkir Bozorov. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining shaxsiy va professional sifatlarini takomillashtirishda ta'lim texnologiyalarning o'rni va ahamiyati	122
Malika Suyanova. Xalq badiiy tilining Hamza she'riyatida tutgan o'rni	125
Oydin Shuxratova. Bolalar folklorining o'zbek xalq og'zaki ijodiyotidagi o'rni	127
Nilufar Sultonova. O'zbek romanlarida postmodernistik syujet tamoyillari	129
Hulkar Isroilova. Abdulla Qahhor asarlarida erkak va ayol nutqidagi gender tafovutlar, disfemizm va evfemizmnning qo'llanilishi	131
Ra'no Madjidova, Eldor Khusanov. Ingliz va o'zbek tillarida sheva va dialect tushunchalarining qo'llanilishi usullari	133
Moxiraxon Usmonxonjadeva. Chet til darslarida o'quvchilarini madaniyatlararo muloqot qilish ruhida tarbiyalash	135
Ra'no Kasimova, Gulruh Olimova. Hojiakbar Shayxovning "Ikki jahon ovorasi" asarida qahramonlar ruhiyati	137
Maftuna Rahimova. Ikki tovushli so'zlarda ifodalovich strukturasi	139
Fariza Ruzimurodova. The impact of deconstruction on the quality of literary translation	141

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

S.Abdullayeva. Chet tilini o'qitishda loyihalash modeli	143
Ziyoda Bazarova. Neyrodidaktika yordamida o'quvchilarning lisoniy kompetentligini shakllantirish muammolari	145
Adiba Davlatova. Abdulla Oripov poetik tafakkurining adabiy-estetik ildizlari	147

TAHLIL

Zuhra Qarshiboyeva. Sohaga oid terminlarning imlosi masalalari	150
To'ra Toshmuhammad Zarif. Hofiz Xorazmiy hayoti va adabiy muhit	151
Muhabbat Ruzmetova. Biznes ingliz tilini o'qitishning lingvodidaktik aspekti	153

KICHIK TADQIQOT

Nodira Baxramova. Gorizontal harakat fe'llarining ma'no tuzilishi	155
Dildora Yorbulova. "Qurban" hikoyasining gap strukturasidagi tahlili	156
Gavxar Qurbanova. Olamning milliy lisoniy manzarasida astronomilar	158
Shohista Mahmudova. Muallif va badiiy asar munosabati	160
Qobil Egannazarov. Yadro predikativ 1 (np1) o'rnda kelgan noaniq olmoshlar ifodalangan sintaksemalar	162
Shamsiddin Primov. Kichik hajviy publisistik janrlar kommunikativlik xususiyatlari	163
Mirshod Eshonkulov. Xushboq Rahim lirkasida poetik nutqning yetakchi xususiyatlari	165
Shahribonu Hamrayeva. Alisher Navoiy obrazining o'zbek adabiyotida Ifodalanishi	167
Muxayyo Rayxonova. Muallif tahririda takomillik	168
Aziza Amonova. PIRLS ta'lim sifatini rivojlantiruvchi va baholovchi xalqaro dastur	170
Aktam Gaffarov. Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarning roli va ularning o'ziga xos xususiyatlari	171
Bobur Sharipov. Retsiproklik tuzilishi va uning grammatik xususiyatlari to'g'risida ayrim mulohazalar	173
Nigina Akhmedova. The role of activities in improving speaking skill	174
Nafosatxon Hojiyeva. Ajratilgan bo'laklar gaplarni murakkablashtiruvchi vosita sifatida	175
Gulrukhs Doniyorova. The significance of microbiological terms related to coronavirus vocabulary	177
Orziguyl Ablakulova, Sohila Aminova. Video lessons and teacher's role in this type of lessons	178
Dilorum Yuldasheva. Subyektning mavhumi darajasi va kontekstlarda namoyon bo'lishi	180
Umida Azimova. Oliy ta'lim muassasalarida Muqimiy asarlarining o'qitilishi	182
Muxlisa Muhiddinova. Muqimiy asarlarida iqtisodiy terminlarning qo'llanilishi	184
Dilafruz Nazarova. Huvaydo ijodida an'anaviy obrazlar talqini	186
Feruza Ermatova. Nazar Eshonqul asarlarida ma'nodosh so'zlar	188
Bahoroy Eshmanova. O'zbek xalq maqollarida nutq madaniyatining milliy madaniy xususiyatlari	192
Nigora Erkinova. She'riyatda xalqona motiv va an'analar ifodasi	194
Dilshodjon Tirkashev. Somerset Moyemning "The moon and sixpence" ("Oy va olti penni") romanida badiiy obrazlar yaratishda stilistik vositalardan foydalananish	196
Malika Rajapova. Allegorik vositalarning lingvokognitiv va lingvopragmatik xususiyatlari	197
Mazmuna Otoboyeva. O'zbek va ingliz tillaridagi fe'l semantik kategoriyalari bo'yicha tuzilgan graduonimik qatorlarlarning o'xshash va farqli jihatlari	198
Nodirakhon Khatamova. Advantages and challenges of integrating social media into foreign language learning	199
Yulduz Jovliyeva. Mahmudxo'ja Behbudiy merosining yosh avlod ta'lim-tarbiyasidagi ahamiyati	201

Dilnavoz YUSUPOVA,
filologiya fanlari doktori,
ToshDO'TAU professori

ALISHER NAVOIY IJODIDA SHAYXLAR ZIKRI VA MA'RIFATULLOH TALQINI

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiy asarlaridagi ma'rifikatulloh g'oyasi yoritilgan bo'lib, bu masala shoirning "Nasoyim ul-muhabbat" asari asosida tadqiq qilingan. Maqola mualifining ta'kidlashiga ko'ra, Navoiy tazkirasida Alloho ni tanish va bilish tushunchasi ikki yo'naliishda: nazariy va amaliy jihatdan talqin qilingan. Ushbu talqinlar asardagi shayxlarning hayoti va faoliyati asosida ochib berilgan. Ma'rifikatulloh tushunchasining muhabbat, hayrat, tawhid kabi tushunchalar bilan bog'liq ekanligiga diqqat qaratilgan.

Kalit so'zlar: ma'rifikatulloh, tazkira, muhabbat, hayrat, tawhid, fano, baqo.

Abstract. The article emphasizes the idea of enlightening oneself with the knowledge of Allah in the works of Ali Shir Navai, and this topic is considered on the basis of the work of Nasoyim ul-Muhabbat. According to the authors of the article, the concept of knowledge of God is interpreted in two ways such as scientific/theoretical and practical/practical. These interpretations are put forward in a work based on the lives and works of sheikhs. Attention is drawn to the connection of the concept of enlightenment with the knowledge of Allah with such concepts as love, admiration and tawhid.

Key words: enlightenment with the knowledge of God, tazkire, admiration, tawhid, fânâ, bâkâ.

Ma'rifikatulloh bu Alloho ni tanish va bilish haqidagi ilm bo'lib, u ikki turga ajraladi: 1) aqliy bilish, ya'ni isbot-dallilar orqali uning zotini idrok etish (Haq Taoloning ismlari hamda sifatlarini tanish va bilish orqali Uning zotini tanish mumkindir); 2) hissiy bilish, ya'ni qalbni poklab, musaffo holga keltirish orqali Haq jamoli va ilmini kashf qilish. Olimlarning fikrlariga ko'ra, bu maqom anbiyo va avliyolargagina nasib etadi. Haqqa yetishish uchun muayyan ruhiy-ma'naviy manzillarni bosib o'tish zarur, zero, bu yo'lga kirgan solikning Haq jamoli va ilmini kashf etishi o'z ruh (nafs)ining holiga qarab bo'ladi. Hadisi sharifda keltirilganidek, «Har kishi o'z nafsin (ruhini, o'zligini) tanisa, batahqiq Parvardigorini taniydi» [G'azzoliy, 2018:22]. Ya'ni inson o'z vujudini, ruhini chuqr tafakkur bilan o'rganib, tanib borsa, Allohnинг ulug' hikmati va beqiyos qudratini shunchalik teranroq anglab yetadi. O'z qusur va xatolarini qanchalik ko'p fahm etsa, Allohnинг benuqson va pok Zot ekanligini shunchalik chuqr idrok qiladi. Ma'rifikatulloh tasavvuf ilmida if'on deb ham ataladi.

Imom G'azzoliyning "Ihyou ulumiddin" asarida yozilishicha, qalbda ma'rifikat maydonga kelgach, qalbning holati o'zgaradi. Qalbning holati o'zgargach, a'zolarning amallari ham o'zgaradi. Ya'ni amal holga, hol ilmga, ilm esa tafakkurga bog'liq bo'lib qoladi [G'azzoliy, 2016].

Olimlarning ta'kidlashlaricha, Haq taolo kimga haqiqatlarning eshigini ochishni istasa, ya'ni oshkor bo'lmoxchi bo'lsa, unga O'z ilmi asrorini ochib, ma'naviy kamolot darajalarini bosib o'tish, ruhoniyat zinasidan ko'tarilishga imkon beradi va uning nafsin moddiylik zindonidan xalos etadi.

Ma'rifikatulloh tasavvufda muhabbat tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir, zero, Alloho ni tanish bev-

osita uni sevishga olib boradi. Muhabbat qalbga olov solmas ekan, ma'rifikat ham, if'on ham bo'lmaydi. Imom G'azzoliyning yozishicha, «ma'rifikatsiz muhabbat, muhabbatsiz ma'rifikat yo'qdir».

Alisher Navoiy asarlarida ma'rifikatulloh talqini quyidagi yo'naliislarda namoyon bo'ladi: 1) nazariy talqin – bu bevosita ma'rifikatullohning mohiyati, asoslari va xos xususiyatlari bilan bog'liq ta'riflar majmuasi; 2) amaliyot bilan bog'liq talqin – muayyan shayx yoki tarixiy shaxs hayotidagi voqelikni hikoyat yoki rivoyat orqali aks ettirish; 3) badiiy talqin – ramziy timsol va vositalar orqali ma'rifikatullohning mazmun-mohiyatini ochib berish. Birinchi va ikkinchi talqinlar ko'proq Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asari, "Lisonut tayr", "Xamsa" tarkibidagi dostonlarda namoyon bo'lsa, uchinchi talqin bevosita shoirning she'riyatida o'z ifodasini topgan. Biz ushbu maqolamizda Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi ma'rifikatulloh talqiniga to'xtalib o'tamiz.

"Nasoyim ul-muhabbat"da ma'rifikatullohning nazariy talqini

Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asari 1495–1496-yillarda yaratilgan bo'lib, Abdurahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns («Do'stlik tarovati») asarining ijodiy tarjimasidir. Garchi buyuk mutafakkir o'z asarini tarjima deb atagan bo'lsa-da, unda Jomiy asaridan farq qiluvchi bir qancha jihatlar bor. Agar Abdurahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns» asarida 616 ta shayx haqida ma'lumot keltirilgan bo'lsa, Navoiy bu ma'lumotlarni qayta ishlab, to'ldirib, shayxlarni sonini 770 taga yetkazadi, ulardan 35 tasini avliyo ayollar tashkil etadi. Asarning muqaddimasi Navoiyning o'zi tomonidan yozilgan. "Nafohat ul-uns"da Farididdin Attorning "Tazkirat

ul-avliyo” asaridagi ba’zi avliyolar tushirib qoldirilgan, Navoiy esa ularni o’z tazkirasida zikr qilgan. Jomiyda hind va turk mashoyix (shayx)lariiga keng o’rin ajratilmagan, lekin Navoiy mumkin qadar ularning barchasini o’z asarida aks ettiradi. Shuningdek, shoir “Nasoyim ul-muhabbat”da Abdurahmon Jomiy va uning zamondoshi bo’lgan valiy zotlar hayoti va faoliyatini ham yoritganini ma’lum qiladi [Yusupova, 2013:203-204].

Asar buyuk mutafakkirning yetuk mutasavvif olim sifatidagi faoliyatini ko’satuvchi muhim manba bo’lib, unda milodiy VIII asrning boshidan XV asrning oxiriga qadar Osiyo, Afrika va Yevropa qit’alarida yashab o’tgan avliyolarning tarjimayi holi, ibratlari hikoyatlar hamda o’git va hikmatlaridan namunalar keltirilgan.

Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asari muqaddimasida shunday yozadi: “Bu taqdир bila andoq tahqiq bo’ldikim, Haq subhonahu va taolo maxluqotda bani odamdin sharifroq va biyikroq xalq qilmaydur, nevchunki, **ma’rifatulloh** ganjining amini va mahrami uldur” [Navoiy, 2001: 13]. Ya’ni bu o’rinda Navoiy Haq subhonahu taoloning insonni yer yuzida barcha maxluqotlardan yuksak qilib yaratishiga sabab uning ma’rifatulloh xazinasiga posbon va mahram (sirdosh) etib tanlanganidadir deb hisoblaydi.

Aslida bu olamning yaratilishidan maqsad ham Allohnin tanish va bilish, ya’ni ma’rifatulloh edi: “Va dedikim, men bir maxfiy xazina edim, o’zimni bildirish, tanitish uchun barcha olamni yaratdim [Navoiy, 2001:13]. Lekin bashar ahli gumrohlik va zalolatdan xoli emas edilar va ularni hidoyatga boshlash uchun payg’ambарlar yuborildi. “Anbiyoning ashrafi, xotim ul-anbiyo” – Payg’ambaramiz (s.a.v.)dan so’ng nubuvvat eshiklari yopildi va bu vazifa ummatning sara olimlari, mashoyixu valiylar zimmasiga tushdi. Aynan shu kishilar Allohnинг ma’rifatini qalbiga joylagan, ilohiy fayzdan bahramand, ko’ngil ko’zi uyg’oq zotlar ediki, Navoiy ularning ibratlari hayot yo’lini tasvirlash orqali insonning bu olamda yashashdan bosh maqsadini ko’rsatib beradi.

Navoiy asarda ma’rifatullohning nazariy talqinini turli o’rinlarda, muayyan munosabat bilan keltirib o’tadi. Ko’p hollarda bu ta’riflar asarda zikri keltirilayotgan shayx tilidan bayon qilinadi. Masalan, Sariy ibn Mug’allis Saqatiy bilan bog’liq faslda uning tilidan ma’rifatga shunday ta’rif beriladi: “Ma’rifatning ibtidosi – yolg’iz Haq bilan bo’lish uchun nafsni poklashdir” [Navoiy, 2001:46]. Demak, ma’rifatullohning boshlanishi nafshi pokligi bilan bog’liq bo’lib, Haq yodi bilan yolg’iz qolish uchun nafs tozargan bo’lishi kerak. “Alisher Navoiy qomusiy lug’ati”da keltirilishicha, insoniy nafs to’rt guruhga bo’linadi: 1) nafsi ammora, 2) nafsi lavvoma, 3) nafsi mutmainna va 4) nafsi mulhama. Nafsi ammora insonga doim buyruq beruvchi nafsoniy kuch bo’lib, achchiqlanish, takabburlik, kek saqlash, hasad, o’chakishish, janjalkashlik, g’iybat kabi manfiy xislatlar nafsi ammoraning asosiy belgilaridanadir. Nafsi lavvoma doim koyib turuvchi nafsoniy kuch bo’lib, o’z jilovini qo’lga olgan, nafsci aqlga bo’ysundirgan va nafsi g’olib kelganda o’zini-o’zi koyib, yana nafsci mag’lub qila oladigan kishining nafsiiga nisbatan qo’llaniladi. Nafsi mutmainna sohiblarining nafsi bata-

mom jilovlangan bo’lib, bular nafs g’alayonidan qutulib xotirjam bo’lgan, nafsining talabalarini xayolga ham keltirmaydigan aziz kimsalardir.

Nafsi mulhama deganda kishida turli jozibali istaklarni uyg’otuvchi kuch tushuniladi. Bunday nafs ko’proq ilm, hikmat va san’at ahlida bo’ladi. Bunday nafs egalariga hayajon, ijod, fidoyilik, go’zallik va oliy qudratni sevish kabi xislatlar xosdir [Qomusiy lug’at, 2016: 417-418]. Sariyning ta’rifida o’z nafsinu butunlay poklagan nafsi mutmainna sohiblari nazarda tutilgan bo’lib, aynan ularning qalbi Haq yodi uchun xoli joy edi. “Nasoyim ul-muhabbat”da Sariyning muridlaridan bo’lgan Junayd Bag’dodiydan shunday rivoyat qilinadi: “Sariydan obidroq kishini uchratmadim. yet mishga kiribdiki, biror marta uni yotgan holda ko’rmadim, faqat o’lim tufayligina ko’rdim. Bir kun Sariyning uyiga kirmsam, uyini supurar va quyidagi baytni o’qib yig’lar edi:

*Ham kecha va ham kunduz erurman mahzun,
Xohi qisqa mening tunum, xoh uzun” [Navoiy,
2001:46].*

Abu Sulaymon Doroni bilan bog’liq faslda esa Haq ma’rifatining yana bir qirrasi ochib beriladi. Bir kuni Doroni yordan so’raydilar: “Ma’rifati haqiqiy nedur? Dedi uldurki: Ikki dunyoda murod birdin o’zga bo’lmag’ay... bir kitobda o’qubmenki, Haq s. t. debdurki, tun kirishi bilan meni unutib, uyquga ketgan kishining menga muhabbat da’vo qilishi yolg’ondir” [Navoiy, 2001:37]. Demak, ma’rifatulloh har ikki olamda faqat Uning rizosi va vasliga erishish maqsadida bo’lgan darveshning ruhiy-ma’naviy holdir.

Asarda ma’rifatullohga berilgan ta’riflar orasida hayrat tushunchasi bilan bog’liq holda talqin qilingan ta’rif eng ko’p keltirilgan bo’lib, Zunnun Misriy, Tohir Maqdisiy, Abu Ya’qub Nahrajuriy va yana ko’plab shayxlarga doir fasllarda “ma’rifatning haqiqati hayrat” ekanligiga urg’u qaratiladi. Bu bejiz emas, albatta, chunki hayrat tasavvufda alohida maqom bo’lib, u solikning fano filloha yetishishi uchun egallanishi zarur bo’lgan darajadir. Hayrat Allohnинг qudrat va hikmatidan tug’il-adigan shunday bir tuyg’uki, uni til bilan bayon etish mumkin emas. Abdulloh Ansoriyning ta’kidlashicha, hayrat ikki xil bo’ladi: birinchisi omma hayrati va bunday hayrat Allohnинг mo’jizalariga ishonmaslik va yo’ldan adashish tufayli paydo bo’ladi. Ikkinci hayrat esa xos kishilar hayrati bo’lib, bunday hayrat “avval uzulmoq va qo’shulmoq, keyin esa na uzulmoq va na qo’shulmoqdir”. Bu hol bevosita tasavvufdagagi fano va baqo tushunchalari bilan bog’liq bo’lib, ma’rifati muhabbat solikni avval fanoga, so’ng esa baqoga olib boradi.

“Ma’rifat sulton” Zunnun Misriy (Farididdin Attor ta’rifi) bir kuni ulug’ bir shayxdan savol so’rash uchun Mag’ribga boradi. Shayx undan nima uchun kelgанини so’raydi va shunday deydi: “Agar avval va oxir ilmni o’rganish uchun kelgan bo’lsang, buning iloji yo’q. Chunki buni faqat Uning o’zигина biladi. Agar O’zini tilab kelgan bo’lsang, sen bu yo’lga qadam qo’yaningdayoq U shu yerda hozir edi. Abdulloh Ansoriy deydiki, U o’z

tilaguvchisining yo'ldoshidir.

Darhaqiqat, ma'rifat hayratning natijasidir. Ma'rifat buyuk Iloh olamlarining bepoyonligi, istig'nosi — muh-tojsizligini, Zoti javharini qalb bilan his etish va ko'ngil bilan tanish demakdir. Shunday qilib, ma'rifat — ruh hodisasidegida, faqru fano ruhning kamolidan nishonadir [Komilov, 2009: 44].

Zunnun Misriy bir kuni sayohat qilib yurganida, jazba holatidagi bir yigitni uchratadi va undan "Qaerdansan, ey g'arib?" deb so'raydi. Yigit: "Uning (Alloh) bilan do'stligi bor kishi g'arib bo'lishi mumkinmi?" deb javob beradi. Bu so'zni eshitgan Zunnun qichqirib, behush yiqiladi. Hushiga kelgandan so'ng yigit undan nima bo'lganligini so'raydi. Zunnun javob beradi: "Dori dardga muvofiq tushdi".

Demak, ma'rifatulloh bu holga yetgan va undan xabardon bo'lganlar uchun umumiyo muloqot tili ham edi. Bu til hayrat tili bo'lib, Zunnun Misriyning ta'biri bilan aytganda, "Ma'rifatning haqiqati hayrattdur".

Ma'rifatullohning amaliy talqini

Ma'rifatullohning amaliyot bilan bog'liq talqini valiy zotlar hayotidagi voqyelikni hikoyat yoki rivoyat orqali aks ettirishda namoyon bo'ladi. Shayx Abu Abdullah Turug'badiy r. t. (vaf. 961) shunday deydi:

"Ollohi taolo bandasig'a o'z ma'rifatidin bir nima ber gay va anga oncha ma'rifatki beribdur, balo bergay, to ul ma'rifat quvvati bila ul baloni ko'targay". (Mazmuni: Allah taolo bandasiga o'z ma'rifatidan bir ulush nasib etadi va mana shu ulush miqdorida balo ham beradi, toki banda shu ma'rifat kuchi bilan balodan qutulsin).

Shayx Sahd bin Abdullah Tustariy degan shayx xalq orasida dardlarga darmon bo'luvchi zot sifatida shuhrat qozongan, ko'p bemorlar uning duolaridan shifo topganlar. Ammo shaxning o'zi bavosil kasalligiga chalingan bo'lsa-da, sabr qilgan, o'zini duo qilib, shifo so'ramagan, bergen dardiga rizo bo'lib, bu dunyoni shukronalik va sabr maqomida tark etgan. Demak, ko'rindiki, ma'rifatulloh nasib etgan bandalar doimiy imtihonda bo'lib, ular Allah tomonidan yuborilgan har qanday sinov va baloni mammuniyat va shukr bilan kutib olganlar.

Alisher Navoiyning fikriga ko'ra, qalbda fayz va ma'rifatning ortishi halol luqma bilan bog'liq, shu sababli shayxlarning aksariyati o'tin tashish yoki muayyan kasb-u kor bilan mashg'ul bo'lganlari, peshona teri evaziga kelgan halol luqma ma'rifatullohning asosiy mezoni bo'lgan. Navoiy shunday yozadi: «Har oina «al-kosibu habibulloh» («kasb egasi Allohning suygan bandasidur») mazmuni bila kibor mashoyix ba'zi sanatlarga ishtig'ol qiliburlar». Asarda shayx ul-mashoyix Abu Said Xarroz etikdo'zlik, shayx Muhammad Sakkok pichoqchilik, shayx Abu Hafs Haddod temirchilik, shayx Abu Bakr Xabboz novvoylik, shayx Abul Abbas Omuliy qassoblik, Shayx Ibrohim Ojuriy g'isht quyish, Mirchai Safolfurush kulolchilik, Shayx Abulhasan Muzayyin va Shayx Bannon hammollik, Shayx Abulhasan duradgorlik bilan shug'ullanganlari haqida ma'lumot beriladi.

Asarda keltirilishicha, Muhammad bin Yusuf banno kunduzlari ustachilik kasbi bilan shug'ullanar, tunlari

zirk bilan mashg'ul edi. Ishlagan pulining ozginasini o'ziga olib, qolganini faqirlarga sadaqa qilar edi. Juda band bo'lishiga qaramay, har kuni Qur'oni bir marta xatm qilar edi. Xuhton namozini o'qigandan so'ng xobgofiga kirib, shu so'zni ko'p takrorlar edi: "Xudoyo, menga o'z do'stligingni va ma'rifatingni nasib qil! Yo bu toqqa amr qilginki, yuqoriga chiqib, mening boshim ustiga qulasin, toki Sening do'stliging va ma'rifatingdin ayru menga tiriklik kerakmas!" Hatto Junayd q. s. ham uning fazl-u kamoliga qoyil qolar ekan.

Ko'rindiki, muayyan kasb bilan, foydali hunar bilan shug'ullanish va mehnat qilish halol luqmaning garovi bo'lib, luqma halol bo'lmasa, ilohiy fayzdan bahraramd bo'linmagan. Shayx Bahouddin Muhammad Naqshband ham kimxob matoga naqsh bog'laganlari bugungi ilm ahliga yaxshi ma'lum. Naqshbandiya tariqatining asosiy shiorlaridan biri ham «Dil ba Yoru dast ba kor», ya'ni «Ko'ngil Yorda-yu qo'l ishda» edi.

Ta'kidlash joizki, ma'rifatulloh sohibi bo'lgan avliyolarning hammasi ham savodli bo'Imaganlar, aksariyati o'qish va yozishni bilmaganlar. Lekin ulardagi ilohiy fayz zamona olimlarini ham hayratda qoldirgan, ayrim hollarda falokatlardan asrab ham qolgan. Asarda keltirilishicha, Shayx Abu Ali Siyoh dehqonliq bilan shug'ullanar, o'qish va yozishdan bexabar edi. O'ttiz yil eldan pinhona nafl ro'zasi tutar edi. Kunduzi ikkita non olib, uydan chiqar edi va yo'lda yashirinchha faqirlarga berar edi. Sheriklari taomga taklif qilsalar, uyda ovqatlanib kelganman, der edi. Uning tilidan shunday naql qiladilar: "yerga har belkurak urganimda, boshqalar urgan beldan tufq qichsa, men urgan belkurakdan ko'ngul nuri chiqar edi". Bir kuni Shayx Abu Ali Siyoh birovning qo'lida bir qog'oz ko'radi va uning qanday qog'ozligini so'raydi. Haligi odam zamona muftisi Imom Abu Alining fatvosi deb javob beradi. Shayx "fatvoni imomning oldiga olib bor va unda xato borligini ayt", deydi. U kishi fatvoni imomga berib, shu so'zni aytadi. Imom o'ylab ko'rib, o'z xatosini topadi va so'raydi: "Shayx buni o'qub ko'rib, so'ng aytdimi? U kishi Shayxning o'qish-yozishni bilmasligini aytadi. Imom Shayx xizmatiga kelib, uzr so'rabbeydi, "Agar u Abu Ali bo'lmasa edi, bu Abu Ali do'zax o'tida kuyar edi".

Ilohiy fayzdan bahramandlik solik qalbidan menlik, izzat-nafs, g'urur kabi tuyg'ularning batamom yo'q bo'lishiga, malomatlarga saknat bilan javob berishga olib kelgan.

Asarda keltirilishicha, Abu Muzohim Sheroyi ma'rifatdan so'z aytuvchi, ulug'vor kishi bo'lib, bir kuni shayx Abu Hafs ziyoratiga boradi. Shu paytda Abu Hafsga bir oz pul kelib qoladi. Muridlar bu pullarni hojatxonani tozalash uchun odamlarga beraylik deyishadi. Shayx "Buni o'zimiz qilganmiz-ku, nega birov tozalashi kerak? O'zimiz tozalaymiz, pulni darveshlarga beramiz" deydi. Ishga mashg'ul bo'lganlarida, bir kishi kelib, Shayxga "Yuz-qo'lingizni yuvib, xirqa kiyib oling, Shayx Abu Muzohim Forisdan sizning ziyoratingizga yetishdi", deydi. Shayx deyidiki, agar u men bilgan o'sha Abu Muzohim bo'lsa, meni shu holatimda ham ko'ra olaadi. Shayx Abu Muzohim keladi. Abu Hafsnинг holatini

ko'rib, salom beradi va kiyimini yechib, ular bilan birga ishga mashg'ul bo'ladi. Abulhusayn Qushchi So'fiy bu haqda shunday degan: "Kimki o'zining nazarida xor ko'rinsa, Allohu taolo uning darajasini baland qiladi va kimki, o'ziga ulug' ko'rinsa, Allohu taolo uni bandalarning nazarida xor qilib ko'rsatadi". Ko'rindik, ma'rifatuloh sohiblarining qalblarida ilohiy fayz oshgani sari yanada xokisor, yanada mutavoze' bo'lib borganlarki, Alloh taolo ularning darajasini ikki dunyoda baland qilib qo'ygan.

Xulosa

Ma'rifatulloh mavzusi Alisher Navoiy ijodining bosh

g'oyasi bo'lib, Navojy insonning bu olamda yashashdan bosh maqsadi Allohnin tanish ekanligini ta'kidlaydi. Allohning do'stlari bo'lmish avliyolar haqidagi asar – "Nasoyim ul-muhabbat"da ma'rifatulloh ikki yo'naliishda: ham nazariy, ham amaliy jihatdan talqin qilingan bo'lib, nazariy talqinda ma'rifatulohning mohiyati, asoslari va xos xususiyatlari ochib berilgan bo'lsa, amaliyat bilan bog'iqliq talqinda shayxlarning hayotidagi muayyan voqeelik hikoyat yoki rivoyat orqali aks ettirilgan. Ma'rifatulloh muhabbat, hayrat, tawhid kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'iqliq bo'lib, ular bir-biridan o'sib chiqadi va bevosita bir-birini to'ldiradi.

Adabiyotlar

1. Абу Ҳомид Ғаззолий. Ихъёу улумиддин. – Т.: Ўзбекистон, 2016.
2. Абу Ҳомид Ғаззолий. Кимиёи саодат. – Тошкент: F.Фулом номидаги НМИУ, 2018.
3. Абдураҳмони Жомий. Нафаҳот ул-унс. Осор. Дар ҳашти жилд. Ж.8. – Душанбе: Адиб, 1990.
4. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. МАТ. 20 жилдлик. Ж.17. – Тошкент: Фан, 2001.
5. Алишер Навоий: қомусий лугат. 1-жилд / Масъул муҳаррир Ш.Сироғиддинов. – Тошкент: Шарқ, 2016.
6. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Т.: Адабиёт, 2021.
7. Ислом энциклопедияси. – Т.: Ўзбекистон Миллӣ энциклопедияси, 2017.
8. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннаҳр-Ўзбекистон, 2009. – 448 б.
9. Фарииддин Аттор. Тазкиратул авлиё. – Т.: Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2013.
9. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври). – Т.: Академнашр, 2013.

Фотима Яркулова,
преподаватель русского языка кафедры
«Гуманитарных наук» САМГУ КФ

РАЗВИТИЕ РЕЧИ НА ЗАНЯТИЯХ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ НА ЭТАПЕ ПРЕДВУЗОВСКОЙ ПОДГОТОВКИ

Аннотация. В статье рассмотрены виды речевой деятельности, основные задачи развития речи при обучении РКИ и типы упражнений по развитию речи.

Ключевые слова: русский язык как иностранный, обучение иностранных студентов, развитие речи.

В настоящее время обучение иностранных студентов является важнейшим аспектом международной деятельности КНИТУ. Начинается обучение на отделении предвузовской подготовки кафедры РКИ. На кафедре реализуются две образовательные программы предвузовской подготовки (по техническому и экономическому профилям).

Необходимым условием для получения высшего профессионального образования в России является владение русским языком. Соответственно, большое значение имеет обучение иностранных студентов русскому языку.

Образовательные стандарты третьего поколения, введённые в 2010 году, предусматривают при обучении русскому языку выработку у студентов необходимых навыков в области практического владения русским языком как инструментом извлечения информации для решения профессиональных

задач.

Компетентностный формат ФГОС ВПО третьего поколения предполагает оценивать качество профессионального образования через компетенции выпускника, в том числе и иностранного, под которыми понимается интегральный результат освоения образовательной программы. В соответствии с терминологией ФГОС ВПО компетенция – это способность применять знания, умения и личностные качества для успешной деятельности в определённой области. [1]

На этапе предвузовской подготовки студент учится воспринимать, понимать, обрабатывать и сообщать информацию, а также воздействовать на участников общения средствами русского языка. На первую роль выдвигается речевая деятельность, которая мыслится как система продуктивных (говорение, писание) и рецептивных (аудирование,